

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

## UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INKLUYUVIZ TA'LIMNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

*Ro'zmurodov Jo'raqul Hamroqul o'g'li*

*Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti*

**Annotatsiya:** Umumiy o'rta ta'lif o'quv jarayonining tashkiliy-pedagogik tuzilmasi inklyuziv ta'lifda kuzatish, nazorat, funksionallik kategoriylariga ko'ra, faoliyatni takomillashtirishning pedagogik-psixologik talablarini belgilash asosida o'rganib chiqilgan

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv maktab, ijtimoiy moslashuv, inklyuziv ta'lif tushunchasi, uzlusiz ta'lif, inclusive, Alohiba e'tiborga muhtoj o'smirlar.

### KIRISH

Dunyo mamlakatlarida nogironligi bo'lgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni tarbiyalash, ularning jamiyatda o'ziga munosib o'rinni egallashlariga ko'maklashish masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi, "Ta'lif hamma uchun" reja-dasturi to'g'risidagi Dakar deklaratsiyasi va boshqa xalqaro miqyosda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning asosiy maqsadi nogiron bolalarni himoyalashga qaratilgan bo'lib, ta'lif jarayoniga inklyuziv yondashuvni samarali joriy etish ham shular jumlasidandir.

Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish umumiy o'qitish tizimi bilan inklyuziv ta'lifni integratsiyalash, o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Umumjahon miqyosida alohida e'tiborga muhtoj bolalarning ruhiy holatini inobatga olgan holda psixologik korreksiyalash metodlari, oila, jamoa va guruhlarda insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish, texnologik ko'maklashuvchi vositalar imkoniyatlarini oshirish borasida samarali ilmiy, ilmiy-texnik, ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilmoqda.

Umumiy o'qitish tizimida inklyuziv ta'lifning pedagogik-psixologik jihatlari, nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lifi ehtiyojlarini qondirish, ularning huquqiy tengligi sharoitini yaratish, jamiyat a'zosi sifatidagi o'rnini mustahkamlashga oid muammolar bu izlanishlarning asosini tashkil etib, ular nogiron bolalarning individual xususiyatlari va adaptiv imkoniyatlarini inobatga olish, ijtimoiy moslashuvini texnologik ta'minlash hamda qo'llab-quvvatlash o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik tizimini takomillashtirishda alohida o'rin egallamoqda.

Ta'lif muassasalarida alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarga ta'lif-tarbiya berish, oilada nogironligi bo'lgan farzandni tarbiyalashning pedagogik-psixologik xususiyatlari, ularning nuqsonlarini korreksiyalash, shuningdek, nutqiy kamchiligini o'rganish va bartaraf etish muammolari, ularni kasb-hunarga yo'naltirish masalalari R.Jo'raev, Sh.Qurbanov, M.Hakimova, G'.Shoumarov, L.Mo'minova, H.Pulatova, L. Nurmuhamedova, R. Shomahmudova kabi olimlar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan.

umumta'lif maktablarida inklyuziv ta'lifni takomillashtirishni pedagogik-psixologik jihatdan asoslash va bu borada muhim taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish maslani yaxshi yechimga kelishga olib boradi. Buning uchun:

-umumta'lif maktablarida inklyuziv o'qitishning mavjud muammo va qiyinchiliklarini, tashkiliy pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda tahlil qilish;

-alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning individual xususiyatlarini, adaptiv imkoniyatlarini inobatga olgan holda testlar va so'rovnomalar o'tkazish hamda, shu asosda, inklyuziv ta'lifga jalb qilingan o'quvchilarning o'z-o'zini baholashlarini, mavjud metodlar asosida ijtimoiy moslashganligi (adaptatsion), ayni zamonda, muloqotkirishuvchanlik darajasini aniqlash;

-alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi jarayoni uchun pedagogik-psixologik talablar (motivatsion, kognitiv, faoliyatli, axborotli) integratsiyasi

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024

asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish, inklyuziv ta'lim texnologiyasi va uning amaliy faoliyatini takomillashtirish modelini yaratish;

-alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy hayotga inklyuziv moslashuvini, pedagogik-psixologik talablar integratsiyasi va inklyuziv ta'lim faoliyatini takomillashtirish modeli samaradorligini eksperiment ishlari orqali aniqlash.


Umumta'lim mакtablарida inklyuziv ta'lim tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun esa quyidagi talqin ko'proq to'g'ri keladi. Inklyuziv ta'lim – inglizcha so'zdan olingan bo'lib, inclusive, inclusion – uyg'unlashmoq, uyg'unlashtirilgan, o'ziga tortuvchi, qamrab oluvchi ma'nolarini, lotinchada esa includ – qamrab olaman, jalb qilmoq, ya'ni alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan va oddiy bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etishdir. Inklyuziv ta'lim – davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalalardan biridir. Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan, voyaga yetayotgan o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'i nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan o'quv jarayoniga jalb qilishni ifodalovchi ta'lim tizimidir.

Umumta'lim mакtablarda joriy etilgan inklyuziv ta'limning maqsadi alohida yordamga muhtoj bolalarning oddiy tengdoshlari bilan bir xil sharoitlarda o'qishi, teng huquq va imkoniyatlar tengligini berish, ular bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishi hamda jamiyatga ijtimoiy moslashuvini yengillashtirish, o'quvchilarning ta'lim olishlari uchun zaruriy pedagogik-psixologik va korreksion sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Umumta'lim mакtablarga oddiy bolalarning barchasi borsa, alohida e'tiborga muhtoj bolalar ham jalb etilishi kerak. Inklyuziv ta'limning oiladan, maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab yo'lga qo'yilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolalarning keyinchalik atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishiga, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan va shu bilan birga, kundalik-maishiy ehtiyojini qondirish ko'nikmalarini erta egallashlariga, hayotga moslashib, umumta'lim mакtablarda tengdoshlari qatori darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishiga, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmasini egallashlariga ko'maklashadi. Umumta'lim mакtablarda inklyuziv ta'lim – alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar yoki boshqa sabablar tufayli tarbiysi og'ir, yetim bolalar uchun moslashuvchan, individuallashgan va barcha bolalarga teng xuquq va imkoniyatlar tengligini beradigan ta'lim tizimidir. Shuningdek, inklyuziv ta'lim – millati, irqi, tanasining rangi, ijtimoiy kelib chiqishi, moddiy va ma'naviy ahvoli, oilasining jamiyatda tutgan o'rni, jismoniy yoki rivojlanishda kamchiligi bo'lishidan qat'i nazar barcha bolalarni teng ko'rish, ulardagi har qanday imkoniyatni qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadigan ta'lim hisoblanadi.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-SENTABR

ANDIJON, 2024



1-rasm. Umumta'lim makrablarida inklyuziv ta'lim tizimi.

## Foydalanilgan adaiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
2. Түре Йонссон. Инклузив таълим. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. ЮНЕСКО Халқаро ташкилоти. Оперейшен Мерси Халқаро ташкилоти, Республика таълим маркази. – Т., 2003.
3. Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Т.: "O'zbekiston", 2008.
4. UNESCO: The edication of children end young health with Disabilities Parish. Principles fun the review of practiced. – Paris, 1992. Р. 9; Брюно Ж. и др. Одаренные дети: психолого-педагогические исследования и практика. //Психологический журнал. – 1995 №4. – С. 74.
5. Radjapova A. R. Pedagogik muloqotni optimallashtirishning kommunikativ usullari. //Xalq ta'limi. – 2011 №6. –104-bet
6. Jo'raev T. S. O'smir o'quvchilar aqliy rivojlanishining psixologik xususiyatlari: Psix. fan. nomzodi ...diss. – Т., 2005. – S. 139.